




2021- yilning yanvar-mart oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-mart oyida Buxoro viloyatida jami **1292,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **114,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2824** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **305** taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurilish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **101,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurilish **128,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **134,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **30,8 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2020- yil 1- aprel holatiga	2021- yil 1- aprel holatiga	
Buxoro viloyati	2519	2824	112,1
Buxoro sh.	843	940	111,5
Kogon sh.	96	118	122,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	56	72	128,6
Buxoro	203	229	112,8
Vobkent	109	124	113,8
G'ijduvon	178	192	107,9
Kogon	128	136	106,3
Qorako'l	83	107	128,9
Qorovulbozor	39	50	128,2
Peshku	134	154	114,9

Romitan	211	231	109,5
Jondor	211	232	110,0
Shofirkon	228	239	104,8


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,3 %), Shofirkon (8,5 %) va Jondor (8,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **288,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **2,4 m.** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **11,6 %** punktga koʻpayib, **22,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



■ ulushi, % da ■ o'sish sur'ati, % da




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qorovulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **92,8 %** i yoki 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **121,7 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **65,0 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **54,9 m.**), va Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **52,3 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **13,5 m.**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-mart oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,3 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oyi ko'rsatkichiga nisbatan **7,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etgan holda **676,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,4 %** ni tashkil etdi yoki **328,0 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **99,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **61,2** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1231,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	1292,5	61,2	4,7	1231,3	95,3
Buxoro sh.	304,2	30,4	10,0	273,8	90,0
Kogon sh.	37,8	1,4	3,7	36,4	96,3
<i>tumanlar:</i>					
Olot	92,8	3,1	3,3	89,7	96,7
Buxoro	92,2	3,5	3,8	88,7	96,2
Vobkent	32,5	1,3	4,0	31,2	96,0
G'ijduvon	112,2	4,4	3,9	107,8	96,1
Kogon	68,0	1,9	2,8	66,1	97,2
Qorako'l	56,2	3,6	6,4	52,6	93,6
Qorovulbozor	88,0	0,9	1,0	87,1	99,0
Peshku	68,7	2,2	3,2	66,5	96,8
Romitan	186,2	2,3	1,2	183,9	98,8
Jondor	90,1	3,8	4,2	86,3	95,8
Shofirkon	63,6	2,4	3,8	61,2	96,2

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-mart

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **56,1 %** i yoki **725,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

56,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **142,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi

19,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **286,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **39,5 %** ni tashkil etdi.

39,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **296,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **40,8 %** ni tashkil etdi.

40,8 %




**2021- yilning yanvar-mart oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Buxoro viloyati	1292,5	114,9	725,3
Buxoro sh.	304,2	102,7	167,1
Kogon sh.	37,8	171,5	15,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	92,8	118,1	39,9
Buxoro	92,2	110,0	43,6
Vobkent	32,5	101,4	21,6
G‘ijduvon	112,2	104,2	62,3
Kogon	68,0	124,7	47,2
Qorako‘l	56,2	109,7	32,6
Qorovulbozor	88,0	108,7	7,4
Peshku	68,7	111,1	45,4
Romitan	186,2	167,6	156,7
Jondor	90,1	104,8	48,7
Shofirkon	63,6	108,0	37,2

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	1292,5	856,4	240,6	195,5
Buxoro sh.	304,2	208,5	65,5	30,2
Kogon sh.	37,8	11,5	3,6	22,7
<i>tumanlar</i>				
Olot	92,8	50,5	13,6	28,7
Buxoro	92,2	66,9	15,2	10,1
Vobkent	32,5	24,1	3,9	4,5
G'ijduvon	112,2	80,9	19	12,3
Kogon	68,0	32,6	22,3	13,1
Qorako'l	56,2	40,5	10,4	5,3
Qorovulbozor	88,0	14,5	35,8	37,7
Peshku	68,7	53,3	9,3	6,1
Romitan	186,2	166,2	12,6	7,4
Jondor	90,1	62,6	16,7	10,8
Shofirkon	63,6	44,3	12,7	6,6



2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (304,2 mlrd. so'm), Romitan (186,2 mlrd. so'm), G'ijduvon (112,2 mlrd. so'm) va Olot (92,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: (65) 223-81-99